

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BILAN XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI O‘RTASIDAGI O‘ZARO IQTISODIY HAMKORLIK MUNOSABATLARINING ISTIQBOLLARI

Yovqochev Sherzod

O‘zsanoatqurilishbank ATB Bosh menejer,

Mustaqil tadqiqotchi

Milliy iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi jarayonida xalqaro moliya institutlari kabi jahon xo‘jaligidagi moliyaviy-iqtisodiy munosabatlari barqarorligini ta‘minlovchi, moliyaviy yordam beruvchi xalqaro institutsional birliklarning ahamiyati katta.

Xalqaro moliya institutlari tomonidan ajratiladigan moliya resurslarini jalb etish sur‘atlarini jadallashtirish, ular bilan birgalikda aholining hayot darajasi va sifatini oshirishga, ishlab chiqarish salohiyatini takomillashtirishga, muqobil energiya tarmoqlarini rivojlantirishga, axborot-texnologiyalari va kommunikatsiya tizimini isloh etishga qaratilgan ko‘plab davlat ahamiyatiga molik loyihalarni amalga oshirish lozim.

Qator olimlar xalqaro moliya institutlari moliyaviy yordamini mamlakatlarning barqaror rivojlanishidagi o‘rnini tahlil etganlar. Misol uchun, A.I. Gorshkovning ilmiy ishlanmalarida Bretton-Vuds institutlarining mamlakat (Rossiya misolida) ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va uning istiqboli uchun ijobiy rolini asoslab berilgan.¹²

A.A. Isadjanovning ilmiy ishlarida, ilmiy-texnikaviy salohiyatni rivojlantirish va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirish, innovatsion loyihalarni amalga oshirish orqali milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning innovatsion modeliga o‘tishni ta‘minlashi yoritilgan.¹³

U.S. Ziyadullayevning fikricha, yosh rivojlanayotgan mamlakatlar (MDH mamlakatlari misolida) xalqaro moliya institutlari kreditlari tufayli texnik va texnologik qayta jihozlanish, yangi texnologiyalarni tadbiq etish masalalari o‘z yechimini topmoqda va buning natijasida aholining turmush darajasi ko‘tarilishiga erishilmoqda.¹⁴

Y.A. Irpekning ilmiy ishlanmasida mamlakatning (Rossiya misolida) ijtimoiy rivojlanish barqarorligini oshirish va ta‘minlash Xalqaro valyuta fondi va Jahon banki guruhi tashkilotlarining iqtisodiy yordamiga bog‘liqligini ochib berilgan.¹⁵

Xalqaro moliya institutlari (Osiyo taraqqiyot banki misolida) O‘zbekiston milliy ta‘lim tizimini rivojlantirish istiqbolida: 1) xalqaro ta‘lim tizimi darajasiga ko‘tarish; 2) ijtimoiy

¹² Manba: Горшков А.И. Проблемы участия Российской Федерации в деятельности МВФ и Всемирного банка : Автореф. дис. .канд. экон. наук / Дипломат, акад. МИД Российской Федерации. М., 1992. -С. 16.

¹³ Manba: Исаджанов А.А. Инновационные факторы экономического роста: современные тенденции и национальные приоритеты // Экономика и финансы (Узбекистан). – 2014. – №. 9. – С. 9-17.

¹⁴ Manba: Зиядуллаев У.С. Формирование системы национальной экономической безопасности при взаимодействии с международным рынком капитала // Российский внешнеэкономический вестник. 2017. №7.-С.16-17.

¹⁵ Manba: Ирпэк Я.А. Роль Международного валютного фонда и Международного банка реконструкции и развития в решении проблемызадолженности развивающихся стран : автореф. дис. канд. экон. наук / Дипломат, акад. МИД СССР. М.: 1990. – С. 14.

birlik va tenglikni ta'minlash; 3) akademik va professional ta'lim uyg'unligini ta'minlash singari ustuvor yo'nalishlarni qamrab olishi ta'kidlanadi.¹⁶

Qolaversa, mamlakatning suveren xalqaro reytinglarining yaxshilanib borishi istiqbolda xalqaro moliya institutlari tomonidan ajratiladigan past foizli kreditlarni jalb etish sur'atlarini oshirishga xizmat qilishi alohida ko'rsatiladi.¹⁷

N.N. Akbulayev va T.A. Ahmadovlarning ilmiy ishlarida (Ozarbayjon misolida) xalqaro moliya institutlari bilan amalga oshirib kelinayotgan dasturlar natijasida mamlakatning yalpi ichki mahsuloti so'nggi 20 yillik davrda o'sishni namoyon etayotgani va hamkorlik istiqboli uchun ijobiy natija ko'rsatayotgani to'g'risida xulosa qilinadi.¹⁸

Xalqaro moliya institutlari bilan aloqalarni yanada yaxshilash iqtisodiyotida biz jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvimiz va iqtisodiyotimizga jahon tajribalarini tadbiq etish orqali rivojlantirishga erishish mumkinligi ham ta'kidlangan.¹⁹

Jahon banki guruhining O'zbekiston Respublikasi bilan hamkorligining uzoq muddatga mo'ljallangan istiqbolli yo'nalishlarga: tuzilmaviy islohotlar, korporativ boshqaruv tizimini, xalqaro standartlar amaliyoti ostida, rivojlantirish; transport, kommunikatsiya, axborot tizimi kabi infratuzilma shakllarini rivojlantirish; qisqa muddatlarda ishchi o'rinlari yaratish uchun sharoitlar yaratish kabilar kiradi.

Uzoq muddatga mo'ljallangan hamkorlik maqsadlarini shartli ravishda quyidagi taraqqiyot yo'nalishlari doirasida birlashtirish mumkin: bozor iqtisodiyotiga o'tish; tanlangan davlat institutlarini isloh qilish va unga fuqarolarni jalb etish, inson kapitaliga investitsiya qilish.²⁰

1. Barqaror bozor iqtisodiyotiga o'tish. Bozor iqtisodiyoti tamoyillarini tadbiq etish va xususiy sohani rivojlantirish, ishchi o'rinlari yaratish iqtisodiyot rivojlanishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Bunda iqtisodiy o'sishni tezlashtirish va bozor iqtisodiyotiga o'tish; biznes muhitining normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish; xususiy sektor uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish; qishloq xo'jaligi mahsulotlarini diversifikatsiyalashni yaxshilash; xususiy-davlat sherikchiligi orqali (ingliz. Private Public Partnership, PPP) infratuzilma xizmatlarini yetkazib berish samaradorligini oshirish singari strategik ahamiyatga molik taraqqiyot dasturlari o'rin olgan.

Makro va tuzilmaviy institutlarni isloh etish orqali bozor iqtisodiyoti islohotlarini chuqurlashtirish jarayoni o'z ichiga quyidagi maqsadlarni qamrab oladi: Xalqaro Moliya Korporatsiyasi (ingliz. International Financial Corporation, IFC) va Investitsiyalarni har

¹⁶ Manba: Usmanov A.C., Abdullaeva Sh. P. Развитие сотрудничества с международными финансовыми институтами в сфере образования // Экономика и финансы (Узбекистан), № 7, 2012, -С. 6.

¹⁷ Manba: Арифджанова Я.У. Ўзбекистоннинг Осиё тараққиёт банки билан ҳамкорлигини ривожлантириш масалалари // Халқаро молия ва ҳисоб электрон журнали. №3, декабрь, 2016, - 9 б.

¹⁸ Manba: Акбулаев Н.Н., Ахмадов Т.А. Экономические отношения Азербайджанской Республики с международными финансовыми институтами // Вестник Челябинского государственного университета, № 7 (417), 2018, -С. 77.

¹⁹ Manba: Умаров З.А., Курбонов Р.Б. Ўзбекистон билан Жаҳон банкининг ҳамкорлигини ривожлантириш истикболлари // Халқаро молия ва ҳисоб илмий электрон жуонали. №1, сентябрь. 2016.-6 б.

²⁰ Manba: International Bank for Reconstruction and Development, International Development Association, International Finance Corporation, Multilateral Investment Guarantee Agency. Performance and Learning Review of the Country Partnership Framework for Uzbekistan. [Elektron resurs]. URL: <http://documents.worldbank.org/curated/en/139671530243060422/Uzbekistan-Performance-and-learning-review-of-the-country-partnership-framework-for-the-period-FY16-FY20>

tomonlama kafolatlash agentligi (ingliz. Multilateral Investment Guarantee Agency, MIGA) bilan hamkorlikda davlat korxonalarini samarali va oshkor xususiylashtirishda yordam berish.

2. Tanlangan davlat institutlarini isloh qilish va unga fuqarolarni jalb etish.

O'zbekiston Respublikasida yangi rivojlanish dasturlari samarali amalga oshirilishi uchun, mamlakatda yangi institutlarni joriy etish va mustahkamlash zarur bo'ladi. Mazkur rivojlantirish yo'nalishi fiskal institutlar va davlat korxonalarining moliyaviy mustahkamlanishi, energiya va isitish xizmatlarini kengaytirish singari ustuvor vazifalarni qamrab oladi.

Davlat korxonalari moliyaviy barqarorligini mustahkamlash jarayoni davlat moliyasi boshqaruv tizimini (ingliz. Public finance management, PFM) takomillashtirish va davlat korxonalari boshqaruvini rivojlantirish, mamlakatning davlat xaridlari doirasidagi islohotlarini qo'llab-quvvatlash maqsadlarini o'zida jam etgan.

Fuqarolarni jalb etishning yangi yo'nalishlari, o'z navbatida mamlakatimizni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, mamlakatning qator vazirliklari va mahalliy boshqaruv organlari virtual qabulxonalari singari yangiliklar joriy etildi.

3. Inson kapitaliga investitsiya qilish. Ijtimoiy himoya, sog'liqni saqlash va ta'lim sohalari orqali inson kapitaliga investitsiya qilish muhim ekanligini yaxshi bilamiz. Yuqoridagi sohalarga investitsiya kiritilishi hamda mazkur sohalar sifat darajasining oshishi, yangi ishchi o'rnini yaratish uchun kerakli infratuzilmaning yaratalishi hamda qo'yilgan maqsadlarga erishishda muhim.

Sifatli ta'lim hamda tibbiy xizmatdan foydalanishni yaxshilash mamlakatdagi mazkur sohalar xizmatlarini kengaytirish va sifatini oshirish, 6-7 yoshdagi bolalar uchun 100 foizlik o'qish qamroviga erishish rejasini ishlab chiqishni tashkil etadi.

Samarali ijtimoiy himoya tarmoqlarini qurish vazifasi o'z navbatida, qashshoqlikni kamaytirish va mehnat bozorini rivojlantirish zarurligini anglatadi. Mamlakatimizning zamonaviy ijtimoiy himoya dasturini ishlab chiqishda ham, aynan Jahon banki guruhining texnik yordamini keng jalb etish ustuvor vazifalar sirasiga kiradi.

Yangi rivojlantirish strategiyasi hamda keng qamrovli islohotlar dasturi asosida O'zbekiston Respublikasi xususiy sektorni keng ravishda jalb qilgan holda, barqoror, keng qamrovli va inklyuziv iqtisodiyot barpo etishni maqsad qilgan. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishida Osiyo taraqqiyot bankining ham istiqobolli hamkorligi muhim hisoblanadi.

Osiyo taraqqiyot banki tomonidan mamlakatimizda suv ta'minoti, sanitariya va transport infratuzilmasini takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Qolaversa, energetika, sog'liqni saqlash, xususiy sektor, ta'lim singari sohalarda ham qator loyihalar amalga oshirib kelinmoqda.

Osiyo taraqqiyot bankining mamlakatimiz bilan uzoq muddatli iqtisodiy hamkorlik strategiyasi asosida barqaror iqtisodiy o'sish hamda mamlakatning transformatsiyalashuvi

jarayonini qollab-quvvatlash, qashshoqlik darajasini pasaytirish va mintaqaviy hamkorlikni yanada kengaytirish tashkil etadi.

Mamlakatning aholi turmush hayotini yaxshilash va sifatli yangi ish o'rinlarini yaratishni raqobatbardosh xususiy sektorni rivojlantirish orqali amalga oshirish mumkin bo'ladi. Osiyo taraqqiyot banki mazkur transformatsiyalashuv jarayonida texnik-konsultativ yordam, moliyaviy resurs va salohiyatni rivojlantirish orqali yordam berishni maqsad qilgan.

1. Xususiy sektor rivojlanishini qo'llab-quvvatlash. Osiyo taraqqiyot bankining faoliyati xususiy sektorni rag'batlantiruvchi unsurlar ishlab chiqishni, hamda davlatning transformatsiyalashuv funksiyasi va rolini takomillashtirishga qaratilgan. Bunda tuzilmaviy islohotlar, davlat moliya boshqaruvi, davlat xaridlari, davlat-xususiy sherikchilik singari yo'nalishlarni rivojlantirish ko'zda tutilgan. Osiyo taraqqiyot bankining infratuzilmani rivojlantirish doirasidagi iqtisodiy faoliyati hukumat korxonalarini qayta qurish va isloh etish imkoniyatini yaratadi.


2. Iqtisodiy va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish. Shahar va qishloq hududlari orasidagi iqtisodiy tafovutni kamaytirish, qishloq hududlari aholisining turmush darajasini oshirish Osiyo taraqqiyot bankining navbatdagi maqsadi hisoblanadi. Unga ko'ra, chorvachilik, bog'dorchilik, suv resurslari menejmenti, irrigatsiyani rivojlantirish, elektr tarmoqlari, suv ta'minoti, chiqindilar utilizatsiyasi, jamoat transporti tizmlarini takomillashtirish maqsadlarini amalga oshiradi. Shu bilan bir qatorda, hududlardagi sog'liqni saqlash tizimi sifati tafovutni kamaytirish hamda sog'liqni saqlash elektron tizimini joriy etish jarayonlarida ham ishtirok etish maqsadi ham belgilangan.

3. Mintaqaviy integratsiya va hamkorlikni jadallashtirish. Osiyo taraqqiyot banki Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (ingliz. Central Asia Regional Economic Cooperation, CAREC) doirasida O'zbekistonning mintqaviy aloqa va savdosini mustahkamlashda davom etadi. Mamlakatning milliy transport tizimini rivojlantirish orqali mintaqaviy va global bozorlarga chiqish imkoniyatini yaratish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, mintaqaviy hamkorlik va integratsiya salohiyatini oshirish zarurligini e'tirof etgan holda, Osiyo taraqqiyot banki O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasi iqtisodiy rivojlanishi uchun boshqa davlatlar bilan yanda yaqin hamkorlik qilishni qo'llab-quvvatlaydi.

Savdo-sotiq ko'lamini va ishbilarmonlik imkoniyatlarini kengaytirish va sanoatlashuvni qo'llab-quvvatlash uchun, O'zbekiston xalqaro portlar va bozorlarga tez va samarali chiqish ehtiyojiga egadir. Mintaqadagi savdo-sotiq raqobatbardoshligini oshirish maqsadida, mamlakatimiz transport tizimini va qo'shni mamlakatlar bilan chegara hududlari infratuzilmasini jadal yangilashni davom ettirmoqda. Bu borada, S.R. Alikulovning fikriga ko'ra, Osiyo taraqqiyot banki Markaziy Osiyo mintaqasi iqtisodiy hamkorlik (ingliz. Central Asia Regional Economic Cooperation, CAREC) dasturi doirasida O'zbekiston mintaqaviy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash uchun transport yo'laklarini logistika va iqtisodiy

yo‘laklarga aylantirishga intilmoqda.²¹ Osiyo taraqqiyot bankining CAREC dasturi doirasidagi yangi avtomobil va temir yo‘llari modernizatsiyasini o‘z ichiga olgan investitsion loyihalari, O‘zbekiston tashqi savdo aloqlari mustahkamlanishida poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida, bojxona jarayonlarini soddalashtirish hamda mamlakatning transchegaraviy transport kelishuvlariga qo‘shilish imkoniyatlarini yaratadi.

Islom taraqqiyot banki ham O‘zbekiston Respublikasini turli sohalarini rivojlantirish maqsadida qishloq xo‘jaligi, energetika, transport, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, qishloq hududlarini takomillashtirish va modernizatsiya qilish singari ijtimoiy muhim va istiqbolli yo‘nalishlar doirasida faoliyat olib borayotgan xalqaro moliya tashkilotlari sirasiga kiradi. Mazkur moliya tashkilotining mamlakatdagi uzoq muddatli istiqbolli faoliyatini shartli ravishda raqobatbardoshlik va iqtisodiy o‘rish guruhlarini doirasida birlashtirish mumkin bo‘ladi.



1-rasm. Hamkorilik strategiyasining umumiy maqsadlari²²

Islom taraqqiyot banki va mamlakatimiz o‘rtasidagi hamkorlik strategiyasi asosiy iqtisodiyotni yanada rivojlantirish maqsadi ostida birlashadi. Bunda yuqori iqtisodiy o‘rish sur‘atlarini saqlab qolish hamda milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish ustunlari

²¹ Manba: Аликулов С.Р., Чоршанбиев Р.Х. Перспективы развития транспортной коммуникации и туризма в Узбекистане // Вестник науки и образования. 2018. №5 (41). –С.11.

²² Manba: Islamic development bank. Uzbekistan member country partnership strategy. Submitted by the representative of Islamic development bank in the Republic of Uzbekistan.

mavjud. Bu esa, sohaviy muhim yo'nalishlar infratuzilma, ta'lim va xususiy sektor singari hamkorlik ustunlarini qamrab olgan. (1-rasmga qarang)

Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan, puxta o'ylangan va izchil yo'nalishlarning olib borilishi, mamlakat iqtisodiyotiga katta hissa qo'sha oladigan muhim bo'g'inga aylantirdi. Hozirgi kunda mamlakatimizda qishloq xo'jaligini, ayniqsa, chorvachilik, parrandachilik, bog'dorchilikni rivojlantirish, bu borada yangi loyihalarni hayotga tatbiq etishga qaratilayotgan alohida e'tibor oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirishga, aholi farovonligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Yuqori texnologiya asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, bog'dorchilikni rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining serhosil, ertapishar navlarini ko'paytirish ham mazkur sohaning rivojlanishi uchun kerakli yo'nalishlardan hisoblanadi. Qolaversa, qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish, yer-suv resurslaridan oqilona foydalanish, zamonaviy agrotexnologiyalarni va suvdan tejamli foydalanish usullarini joriy etish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, qishloq xo'jaligi xom ashyosini yanada chuqur qayta ishlash o'zaro hamkorlik doirasida ustuvor istiqbolli maqsadalar sirasiga kiradi.

Raqobatbardoshlik muhitini yaxshilash sanoatlashuv jarayonida muhim ahamiyat kasb etganligi sababli, Islom taraqqiyot bankining mamlakatni rivojlantirish maqsadalaridan joy olgan. Vatanimizda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish, milliy sanoat va iqtisodiyotni rivojlantirishning jahon konyunkturasidagi o'zgarishlarga bog'ligini kamaytirish maqsadida normativ ko'rsatkich va tariflarning barqarorligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, sanoat mahsulotini ishlab chiqarishda uning tashqi bozordagi raqobatbardoshligini ta'minlaydigan xalqaro sifat sertifikatlari va texnik reglamentlarini tizimli tarzda tadbqiq etish ham yuqoridagilar jumlasidandir.

Hududlarni kompleks va mutanosib tarzda rivojlantirishni ta'minlash, mintaqalarning mavjud tabiiy xom ashyo, ishlab chiqarish va mehnat salohiyatidan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish kuchlarini optimal joylashtirish hamda aholining turmush darajasi va sifatini izchil oshirib borish, shuningdek, mahalliy ijro hokimiyati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish ishlarining olib borilishi mamlakatimiz taraqqiyoti uchun katta ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, hududiy investitsiya dasturlari ishlab chiqishni ta'minlanishi va amalga oshirilishi, yangi ishlab chiqarish obyektlarining qurilishi va o'z vaqtida ishga tushirilishi hamda amaldagilarini modernizatsiyalashning borishi ustidan monitoring olib borilishi ham hududlar rivojlanishida poydevor bo'lib xizmat qiladi. Aholini sifatli ichimlik suvi va sanitar tozalash tizimi bilan ta'minlash, aholi punktlarini obodonlashtirish kabi ishlarining bajarilishi ham mazkur moliya tashkilotining ustuvor vazifalari sirasiga kiradi.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasida faoliya tolib boruvchi Islom taraqqiyot bankining iqtisodiy faoliyati uzoq muddatli istiqbolida soha tarmoqlarini takomillashtirish, infratuzilma tarkibiy jihatlarini qayta mustahkamlash, davlat-xususiy sherikchilik jarayonini rag'batlantirish, xususiy sektorni yanada ravnaq topishi, ijtimoiy kompleks (sog'lini saqlash,

ta'lim, transport, davlat va kommunal xizmatlari, suv ta'minoti va irrigatsiya) tarmoqlarini tubdan isloh etish va samardorligini oshirish, muqobil energetika (quyosh, shamol) sohasini shakllantirish, va asosiysi, islom moliya dastaklari va unsurlaridan keng miqyosda foylanish orqali xorijiy kapital diversifikatsiyasiga erishish mumkin bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, yuqorida qayd etilgan xalqaro moliya tashkilotlari bilan uzoq muddatga mo'ljallangan hamkorlik istiqbollari quyidagi yo'nalishlarni qamrab olishi maqsadga muvofiq:

Birinchidan, xalqaro moliya tashkilotlarining mintaqaviy bo'linmalarining Toshkent shahrida tashkil etilishi. Hozirgi kunda Jahon bankining Markaziy Osiyo bo'yicha mintaqaviy ofisi Olmata shahrida²³, Osiyo taraqqiyot bankining bosh ofisi Manila shahrida²⁴, Islom taraqqiyot bankining Markaziy Osiyo mintaqaviy ofisi Olmata shahrida²⁵ joylashgan. Xalqaro moliya tashkilotlarining Markaziy Osiyo mintaqasi hamkorligi doirasida mintaqaviy bo'linmalarining Toshkent shahrida tashkil etilishi va uning yirik moliya markaziga aylanishi uchun yetarlicha mamlakatning salohiyati mavjud. Mamlakatning Markaziy Osiyoning jami aholisining 40%ga yaqini O'zbekistonda istiqomat qilishi, sanoatlashuv uchun bozorning va ishchi kuchining mavjudligi, strategik joylashuvi, ya'ni Shimoliy va Janubiy hamda G'arbiy va Sharqiy transport yo'laklarida joylashganligi, boy tabiiy resurslarga egaligi qulay sharoitlar yaratadi. Qolaversa, qadimiy boy madaniyat, tarixiy yodgorliklar xalqaro turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlarni yuzaga keltiradi; qulay tabiiy iqlim va boyliklarning mavjudligi ishlab chiqarish, qurilish va qishloq xo'jaligi sohasida raqobatbardosh muhitni shakllantiradi; "Buyuk ipak yo'li" da joylashganligi xalqaro integratsiyada Yevropa va Osiyoni bog'lovchi "ko'priq" vazifasini bajarishga yetarlicha imkoniyatni vujudga keltiradi; O'zbekiston Respublikasining yetarli darajada malakali mutaxassislar bilan ta'minlanganligi zamonaviy texnologiya va ishlab chiqarish infratuzilmasini barpo qilishni kengaytiradi; mamlakatda ichki ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish va eksportni rag'batlantirish siyosatining yuritilishi singari qator xalqaro ustuvorliklar mamlakatning xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorligini yanada rivojlantirishi uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun, o'zaro hamkorlik istiqboli doirasida xalqaro moliya tashkilotlari mintaqaviy bo'linmalarining aynan Toshkent shahrida tashkil etilishi uchun yetarlicha asos va shart-sharoitlar mavjudligini e'tirof etish lozim.

Ikkinchidan, xalqaro moliya tashkilotlarining rivojlantirish dasturlari va loyihalari doirasida Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlarini keng jalb etish. Mintaqada integratsiya jarayonlarini yanada jadallashtirish uchun yaqin qo'shni mamlakatlar (Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Tojikiston) bilan investitsion loyihalarni birgalikda amalga oshirishi g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda mamlakatimiz

²³Manba: World Bank Group. Office Locations. [Elektron resurs]. URL: http://siteresources.worldbank.org/INTANNREP2K5/Resources/Office_Locations.pdf

²⁴Manba: Asian Development Bank. Departments and Country Offices. [Elektron resurs]. URL: <https://www.adb.org/about/departments-offices>

²⁵Manba: Islamic Development Bank. Offices. [Elektron resurs]. URL: <https://www.isdb.org/offices>

xalqaro moliya institutlarining mintaqa miqyosdagi taraqqiyot dasturlarini amalga oshirishda tashabbuskorlik qilishi maqsadga muvofiq.

Bu o'rinda A.P. Mironenko va T.T. Sarsembekovlarning ilmiy qarashlarini keltirish mumkin. Ular xalqaro moliya institutlari transchegaraviy daryolardan foydalanishning huquqiy nazoratida muhim dastak sifatida xizmat qilishi mumkinligini ta'kidlashgan.

²⁶Ya'ni Markaziy Osiyo mamlakatlari transchegaraviy darayolarning suv resurslaridan ekologik xavfsiz foydalanish to'g'risida kelishuvga xalqaro moliya institutlari yordamida erishishi mumkinligini xulosa qilishadi. Shu bilan birga, O'zbekistonning Turkmaniston portlari orqali Kaspiy dengiziga chiqishi, qo'shimcha yo'l o'tkazish punktlari ochilishi, Markaziy Osiyo davlatlarining chegaradosh hududlari o'rtasida biznes hamjamiyatlarini tashkil etish borasida ham ilmiy tahlillar amalga oshirilgan.²⁷

Qolaversa, mamlakatning Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi xalqaro tashkilot mamlakatlari bilan bilan Pandemiya sharoitida hamkorlik etish masalalari ham taqdiqiq etilgan.²⁸

Shunday qilib, mamlakatning xalqaro moliya tashkilotlari bilan iqtisodiy hamkorligi uzoq muddatli strategik maqsadlar doirasida birlashadi. Xalqaro moliya tashkilotlarining resurslarini va texnik-konsultativ yordamini jalb etish, mamlakatning transformatsiyalashuv jarayonlariga jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida qayd etilgan maqsad va vazifalarning barchasini amalga oshirish uchun yangilanayotgan O'zbekiston Respublikasining yetarlicha salohiyati mavjud. Shu nuqtai nazardan, mamlakat iqtisodiyot tarmoqlarining institutsional jihatlarini (me'yoriy-huquqiy, tashkiliy-tuzilmaviy, ilmiy-texnik) rivojlantirish muhim. Bu esa xalqaro moliya tashkilotlari bilan uzluksiz hamda doimiy hamkorlikni amalga oshiruvchi va unga xizmat qiluvchi institutsional birliklarni tashkil etishni taqozo etadi.

²⁶Manba: Мироненков А., Сарсембеков Т. Международные финансовые институты как инструмент обеспечения правового режима использования трансграничных рек. Недвижимость и инвестиции // Правовое регулирование, № 1 (46) май 2011.-С. 32.

²⁷Manba: Goyibnazarov Sh.G. and others. Uzbek model of combating on new stage of foreign economic activity in the Republic of Uzbekistan. "Science of the 21th century: Society and digitalization". Scope academic house., Jan 30, 2021, Sheffield, UK.

²⁸Manba: Ахмедов Д. Статус наблюдателя в ЕАЭС – хорошая возможность реализовать потенциал нашей страны. [Elektron resurs]. URL: <https://adolat.uz/ru/news/durbek-ahmedov-status-nablyudatelya-v-eaes-horoshaya-vozmozhnost-realizovat-potencial-nashej-strany>